



Sabinabonu QAXRAMONOVA,

ToshDO'TAU talabasi

E:mail: sabinabonuqaxramonova@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti f.f.d., prof. G.Xalliyeva taqrizi asosida

### BOTIN FOJEASI HAQIDAGI ROMAN

Annotatsiya

Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi Jek London qalamiga mansub "Martin Iden" romanidagi bosh qahramon va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar tahlil qilingan. Adib davr mafkurasi, sinfiy tabaqalishning avj nuqtalarini obrazlararo munosabatlar, personajlar xatti-harakati orqali mohirona olib berganligi ko'rsatilgan. Martin Iden o'limining ramzga asoslanganligi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Syujet, obraz, tahlil, talqin, roman, biografik metod, realizm, burjuaziya, sinfiylik.

### РОМАН О ВНУТРЕННЕЙ ТРАГЕДИИ

Аннотация

В данной статье анализируются конфликты из романа американского писателя Джека Лондона "Мартин Иден" которые происходили между главным героем и обществом. Писатель удачно раскрывает, кульминацию идеологии литературного периода и классового расслоения, через отношения и поведение героев. Была упомянута, что смерть Мартина Идена имеет символический характер.

**Ключевые слова:** Сюжет, образ, анализ, интерпретация, роман, биографический метод, реализм, буржуазия, класс.

### A NOVEL ABOUT INNER TRAGEDY

Annotation

This article analyzes the conflicts between the main character and society in the novel "Martin Eden" by the American writer Jack London. It is shown that the writer skillfully revealed the ideology of the period, the climax of class stratification through the relationships between the characters and the behavior of the characters. It is cited that the death of Martin Iden is based on the symbolism.

**Key words:** Plot, image, analysis, interpretation, novel, biographical method, realism, bourgeoisie, classism.

**Kirish.** Jahon adabiyotida o'z mavqeiyiga ega bo'lgan noyob iste'dod sohibi Jek London asarlari boshqa tillarga eng ko'p tarjima qilingan amerikalik yozuvchilardan biridir. U – hayoti davomida o'nlab roman, qissa va hikoyalar yaratgan sermahsul yozuvchi. Ijodkor o'z asarlarida hayotning murakkabligi, jamiyatdagi qusurlar, insonlar orasidagi munosabatlarni asosiy planga chiqardi va real vogelik asosida tasvirladi. Uning qahramonlari muallif yashagan davr odamlari bo'lib, mazkur obrazlar orqali ayni jamiyat, tuzum holati olib berilgan. Jek London ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal qilishga urindi. Mazkur maqolada tahlil qilinayotgan "Martin Iden" romani ham hanuzgacha o'qirmanlar tomonidan sevib mutolaa qilinayotgan XX asrning eng sara romanlaridandir. Romanda oqimga qarshi shiddat bilan harakatlanayotgan bosh qahramon - Martin orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat tasvirlangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'pgina adabiyotshunoslar Martin Iden romani avtobiografik ruhda yozilganligini ta'kidlab o'tishgan. Jek London ham qahramoni Martin singari quyi tabaqadan chiqqan va o'z kuchi bilan adabiyotda mashhurlikka erishgan. Shuningdek, romanda keltirilgan hikoyalar ham o'zi yozgan hikoyalariiga yaqin turadi. Mazkur masala yuzasidan Professor Gulnoz Xalliyevaning bildirgan fikrlari har jihatdan to'g'ri: "Jek London hayotning butun mashaqqatlari, ziddiyatlari, miyoqlari bilan to'qnash keladi va keyinchalik bularning barini o'z asarlarida badiiy qayta gavdalantiradi. Mana shu hayotiyligi sabab adib romanlari, qator povest va hikoyalari, pyesalari butun jahon kitobxonlarining sevimli mulkiga aylangan" [6]. Yozuvchi Alfred Kazin romanni "Amerika fantastikasida mavjud bo'lgan yozuvchi ichki hayotining eng barqaror va ta'sirchan portreti" deb atadi. Boshqa olimlar Londonning individualizm, sinfiy qarama-qarshilik mavzularini o'rganish uchun Martinning dengiz bilan munosabati kabi ramziylikdan mohirona foydalanganini yuqori baholadilar. Biroq ba'zi tanqidchilarning ta'kidlashicha, Martin o'zi erishgan adabiy va ijtimoiy muvaffaqiyatni rad etgan romanning oxiri o'ta

tushkun kayfiyatdadir. Amerika olimlari o'rtasida roman Jek Londonning yozuvchi sifatidagi shaxsiy tajribalari va umidsizliklarni qay darajada aks ettingani haqida bahs-munozaralar mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani yozish jarayonida biografik metoddan foydalanildi. Muallif va bosh qahramonning hayotidagi mushtarak jihatlar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadi, ushbu asar avtobiografik ruhda yozilgan bo'lib, muallif o'z hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda romandagi voqealarni shakllantirgan. Biografik metodning quyidagi ta'rifi mazkur romanga mos keladi, deb ayta olamiz: "Yozuvchi o'zi bevosita ko'rgan, guvohi bo'lgan voqe-a-hodisalar, o'zi kuzatgan hayotiy holatlar-u manzaralar, turfa fe'l-xo'yili odamlar-u ularning o'zaro munosabatlari yozgan asarlarida u yoki bu yo'sinda, turli maqsadlar bilan o'z aksini topadi" [5].

**Tahlil va natijalar.** "Martin Iden" romani tahliliga tortilar ekan, yozuvchi bosh qahramonni dengiz hayotidan jamiyatga olib kirdi. Jek London ushbu syujetni asarga bejiz olib kirmagan. Birinchidan, bu muallif biografiysi bilan bog'liq. Ikkinchidan, dengiz ramziy fon sifatida erkinlik va mustaqillik tuyg'usini ifodalaydi. Oddiy ishchi, halol mehnat bilan kun kechiradigan matros asarda shunday ta'rifanadi: "Qizni hamma yog'i yara-chaqa bo'lib, terisiga hayot kiri singib ketgandek tuyulg'an qadoq qo'llar, bo'rtib turgan mushaklar, yoqasi qizartirib yuborgan bo'yin o'zidan chetlatardi. Yigitning dag'allagi qizni cho'chitardi. Har bir qo'pol so'z qizining qulog'iga haqoratdek eshitilardi, uning hayotining har bir qo'pol tafsiloti qizning hissiyorini tahlirlar edi" [2]. Martinga zid ravishda Ruf quyidagicha ta'riflanadi: "Rufning qo'li... u qo'l mehnat nimaligini bilmaydi, shuning uchun ham nozik va yumshoq" [2]. Mazkur ikki ta'rif vositasida zodagon va ishchi guruh vakillari o'rtasidagi tafovutni ko'rsatilgan.

Romanning boshidanoq burjuaziya shahrining qizi Ruf bilan uchrashdi va unga ko'ngil qo'ydi. Muhabbat dunyonı o'zgartirganidek, Martin Rufni uchratganida uning hayotida keskin burilish sodir bo'ldi. Uning maqsadi – o'z muhabbatı

Rufga erishish. U sevgisiga yetishish uchun birdan bir yo'l bo'lgan Morzlar davrsasi vakillariga o'xhashsga harakat qildi. Bu jarayonda u o'z-o'zini tarbiyalash yo'lidan bordi: qanday mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar ko'plab she'rlar va kitoblar o'qidi, natijada unda yozuvchilikka nisbatan qiziqish uyg'ondi. U o'z hikoyalarida real hayotni, boshidan kechirgilarini tasvirladi. Hayotning go'zalligini faqat zodagonlar emas, balki oddiy ishchilar ham ko'ra olishini aks ettirdi. Roman boshida Martin pulsizlikdan qiyngan bo'lsa, ijod qilishi uchun pul quvvat manbayi hisoblangan bo'lsa, keyinchalik unga pulning ahamiyati qolmadni va asar yozishga xohishi yo'qoldi. Odamlar qashshoq paytida unga past nazar bilan qaradi, biroq unga omad kulib boqqach, nashrdan qaytarilgan asarlariga talab ortdi, hatto Morzlar oilasi vakillari ham uni oldiga qaytib kelishdi, avval qarshi chiqqan fikrlarini ma'qullashdi. Insoniyatda uchravdig'an shuhratparastlik, moddiyatga ruju qo'yish shu o'rinnarda adib tomonidan mohirona tasvirlangan. Uning barcha xatti-harakatlari faqatgina Rufga erishish uchun edi, ammo U Rufga yaqinlashish uchun qanchalik salohiyatini oshirmsasin, ularning orasi shuncha uzoqlashayotganiga amin bo'ldi: "Martin dunyoda yashash uchun ishlashlari shart bo'Imagan odamlar ham borligi haqida o'ylagan zahoti Ruf bilan o'zi o'rtasidagi jar yana teranlashdi. Birdan uning ko'zi oldida mehnat nimaligini bilmaydigan oqsuyaklar qiyofasi namoyon bo'ldi. Bu qiyofa isqirt oq devorda takabbur va ulug'vor bronza haykal sifatida namoyon bo'ldi" [2].

Ruf –Martinga butunlay teskari jamiyat vakili, u tug'ilganidanoq o'z shaxsiy qarashlariga ega bo'Imagan, atrofdagilar o'rnatgan qoidalardan chetga chiqmagan, hayotni faqat kitoblar orqali tanigan qiz sifatida gavdalananadi. Rufning Martinga bo'lgan iliq munosabati faqat uni o'z yo'rig'iga solish, "odob-axloq" qa asoslangan burjuaziya madaniyatini uning ongiga sindirish edi. Rufning o'zi ham ayni muhitda shakllandi. Martin – burjuaziya hokimiyatiga o'z g'oyalari bilan qarshi chiqqan shaxs. "Burjuaziya – (frans,Bourgeoise – shaharliklar) savdo, sanoat, kreditmoliya va b. Tadbirkorlik faoliyati natijasida daromad oluvchi ijtimoiy sinf" [7]. Martin yuqori tabaqa vakillariga intilib harakat qildi, ammo vaqt o'tgach, u orzu qilgan jamiyat aslida faqat to'rtburchak qolipga solingen kishillardan tarkib topganiga guvoh bo'ldi. U xohlagan hayot kutganidek ideal emasligini anglab yetdi. Asarda Brissenden tilidan yozuvchi burjuaziya hokimiyatiga quyidagicha munosabat bildiradi: "Ehtiyyot bo'ling! Bu burjuziya shaharlari sizni nobud qiladi. Misol uchun, o'sha siz bilan tanishganimiz uyni – yakanchilar makonini oling. Xudo haqqi, axlat o'rasidan ham battar u yer. Bunday muhitda sog' qolmaydi kishi. Beixtiyor nafasing qaytib ketadi" [2].

"Martin Iden" romani ham ko'pgina jahon adabiyoti durdonalari singari fojeaviy o'lim bilan yakunlanadi. Martin jismonan o'lishdan avval ma'nan o'lib bo'lgan edi. Faqat uning g'oyalari tirik qoldi, xolos. Uning o'limini shunchaki bu dunyoni tark qilish emas, balki butun bir chirkin jamiyatdan ozod bo'lish, deya talqin qilish to'g'ri bo'ladi. Martin bu biqiq jamiyatda go'yo bir qafasda qolib ketgandek edi, o'lib bularning baridan qutuldi. U asar oxiriga kelib umri so'nib borayotganini, hayotdan bezganini his qildi. "Hayotga intilmaydigan odam o'limga yo'l axtara boshlaydi" [2]. Martin boshqa yo'llar bilan emas, aynan o'zini suvga tashlab halok bo'lishi dengizning, suvning ozodlik, hurlik ramzi ekanligidan dalolatdir. Martin Ruf, umuman, Morzlar oilasi mansub bo'lgan yuqorida tabaqa vakillari jamiyatida emas, matroslik qilgan dengiz hayotida baxtliroq edi. U o'zi erkin his qilgan dengizga qaytdi. Martining o'limiga bir qancha sabablarni keltirishimiz mumkin:

1. Asar diniy e'tiqodga zid bo'lgan – o'z joniga qasd qilish bilan niyolanganadi, ammo yuqorida aytganimizdek, Martining o'limi ozodlik uchun xizmat qildi. Asarda Martinni biron bir dinga e'tiqod qilishi haqida ma'lumotlar keltirilmagan, biroq Nitshedan ta'sirlanganligi ko'p o'rinnarda qayd etilgan. Nitshe falsafasida shu kabi g'oyalari ilgari surilgan: "Nitshe barcha soxta, chirkin, hayotga dashman bo'lgan narsalarni yo'q qilishga tayyor turuvchi yangi inson idealini yaratishga intildi. Nitshe xristianlikka qarshi kurashdi va "qullik axloq"ni xristianlikning mahsuli deb baholadi" [8]. Kishi biron bir dinga e'tiqodi mustahkam bo'lsa, u o'z joniga qasd qilmaydi, zero hech bir e'tiqod vakillari bu ishni oqlamaydi. Aynan e'tiqod yuzasidan o'z

joniga qasd qilganini sabab qilsak ham, qahramonning o'limini butkul ramzdan tashqari deb ayta olmaymiz.

2. Uni tushunadigan hech kim yo'qligi, asar oxirlariga kelib yolg'iz qolishi, hattoki, u uchun ideal bo'lgan Brissenden ham, sevgilisi Ruf ham uning yonida bo'imasligi – o'limining yana bir sababi, deya izohlashimiz mumkin. Martin jamiyat ichida yolg'iz qolgan shaxs, uning atrofdagilari u kabi fikrlamaydi, u o'zining avvalgi ishchilar guruhidan ancha odimlagan, ammo o'zi orzu qilgan madaniyatli jamiyatda ham yolg'iz edi, unga o'xshaydigan yo'ldosh yo'q edi. Ijodkor shaxs uchun asarlarini yaratishda, ijodiy muhitni his qilishda maslakdosh kerak. Martining hayoti davomida ideal do'st sifatida yolg'iz Brissendenni aytishimiz mumkin. Brissenden ham Martin bosib o'tgan davrlarni boshdan kechirdi, faqat unda Martindek muhabbat yo'q. Brissenden ko'p bor Martinga burjuaziyaning odamlari, jumladan Ruf haqida ham nomaqbul so'zlarni so'zlaydi: "Hali siz o'sha ajib muhabbat sonetlarigizni anavi oq badan urg'ochi maxluq sha'niga yozgan bo'lmang" [2]. Ular o'rtasida bunday tortishuvlar ko'p bo'lgan, biroq Martining qalbiga faqat Brissenden yaqin bo'la oldi va uning o'limi Martin uchun chin ma'nodagi yo'qotish edi. Hech kim Martinni tan olmaganida ham Brissenden asarlarini haqida iliq fikrlar aytilib, ijodini go'zallik deya baholadi. "Siz go'zallikni faqat go'zallik tufayli seving, jurnallarni esa unuting. Obbo, Martin Iden! Siz yaxshisi, kemaga, dengizga qayting. Mening beradigan maslahatim shu. Bu yerda, shu jirkanch axlatxonada nima bor sizga? Axir siz jurnallar ehtiyojini qondirish uchun go'zallikni bir fohisha sifatida sotib, har kuni o'z joningizga suiqasd qilyapsiz-ku" [2]. Brissendandan so'ng Martining atrofida asarlarini o'qydigan hech kim qolmadni, ortiq yozmay qo'ydi. Yozuvchi uning holatini quyidagicha tasvirlaydi: "U odamovi bo'lib qolgan edi. Odamlar bilan muomala qilish unga tobora qiyin tuyulardi. Oldida odamlar bo'lsa yuragi siqilar, ular bilan suhhbat qurishga majbur bo'lsa, zardasi qaynardi. Odamlar uning asabiga tegardi, shuning uchun Martin biron kishi bilan uchrashib ulgurmasdan, undan qutulish uchun bahona qidira boshlardi" [2]. Asarning oxirida asta – sekin odamlardan, jamiyatdan uzilib borishi o'lim tomon yetaklaydi.

3. Martin o'zi yashab turgan jamiyatning me'yorlarini rad etdi va o'zining tamoyillarini ham buzishni istamadi. U jamiyatni o'zgartira olmaganimi fojea deb hisoblab, hech qanday chora qolmagach, Burjuaziya qarshi turishning yagona yo'l o'lim deb bildi. U o'z maqsadiga o'limi orqali erishishni lozim topdi. Kitobxon Martining so'nggi qarorini irodasizlikka yo'yishi mumkin, ammo biz bu fikrdan yiroqmiz. Romanning boshidan oxiriga qadar o'z maqsadi yo'lida qancha qiyinchilik va rad etishlariga qaramay, harakatni davom ettirganligidan uning qay darajda irodaliligini bilishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki, Jek London asarlarida hayot uchun kurash, ijtimoiy muammolar tasviri birlamchidir. "Martin Iden" romani ham XX asr Amerika tanqidiy realizming yuksak namunasi hisoblanadi. Roman barcha yosh vakillari uchun birdekk ta'sir qilib, asarda hayotni sevish, jamiyat uchun kurash tasvirlangan. Roman voqealari, muallif o'rtaga tashlagan mavzu, o'qirmani maqsadga yetishish yo'lida tinimsiz mehnat qilish, harakatdan to'xtamaslikka undaydi. Adib o'quvchiga davr mafkurasi, sinfiy tabaqlanishning avj nuqtalarini obrazlararo munosabatlar, personajlar xatti-harakati orqali mohirona yetkazib bera olgan. Shuningdek, romanning asosiy mavzularidan buri – burjuaziya va ishchilar sinfi o'rtasidagi ziddiyat va bu kuchning Martin Iden hayotiga ta'siridan iborat. Romanda zodagonlar va ishchilar guruhi vositasida Burjuaziya hokimiyatinining roli va uning sinifiy guruhlarga ta'siri ochib berilgan. Martin obrazi orqali Burjuua hokimiyatiga qarshi chiqqan quyi tabaqa vakillarining hayotida uchrangan qiyinchiliklar, to'siqlar ko'rsatilgan. Martining o'z-o'zini tarbiyalash, xulq-atvorini yaxshilash uchun qilgan harakatlari yuqori tabaqa vakillarining singdirgan noto'g'ri qarashlari tufayli barbob bo'ladi va borgan sari o'zi orzu qilgan odamlar orasidan, dunyodan uzoqlashib boradi. Bundan tashqari, asarda fojeaviy qahramonlik kuzatiladi. Martin Iden ana shunday qahramon sifatida namoyon bo'lib, o'z qarashlarini, g'oyalari amalga oshira olmagach, o'limni tanladi. Maqolada Martining o'limiga sabab bo'lgan bir necha omillarni izohlashga urindik. Umuman olganda, ijodkor romanni yozishda o'z hayotiy

tajribalariga tayangan va ilgari surgan g'oyalar aniq ifodalangan. "Martin Iden"ning voqealari ham, kayfiyati ham ko'pincha avtobiografik bo'lsa-da, uning mavzulari yanada kengroq doiraga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon Adabiyoti (O'quv qo'llanma). – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017.
2. J. London. Martin Iden. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2023.
3. Jo'raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik (O'quv qo'llanma). – Toshkent: "Lesson press nashriyoti", 2021.
4. Жўракуов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт матбаса ижод уйи, 2015.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007.
6. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент Давлат илмий нашриёти, 2000.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Тошкент Давлат илмий нашриёти, 2003.